

## O‘ZBEKISTON DIPLOMATIYASINING TARIXI VA ISTIQBOLLARI

**Asrorbek Xusniddin o‘g‘li Parpiyev**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

[asrorbekparpiyev03@gmail.com](mailto:asrorbekparpiyev03@gmail.com)

**Dilmurod Dilshodjon o‘g‘li Dilmurodov**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya talabasi

[dilmurodov3033@gmail.com](mailto:dilmurodov3033@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi diplomatiyasining tarixi va uning kelajakdagi istiqbollari batafsil yoritilgan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu sohada mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** diplomatiya, xalqaro munosabatlar, elchi, tashqi siyosat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi, AQSh Davlat departamenti.

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng turli xil sohalar qatori tashqi siyosiy yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy harakatlarni boshlagan. O‘zbekiston o‘z oldiga nafaqat izchil ichki siyosat yuritishni, balki faol tashqi siyosat yuritishni ham asosiy vazifa qilib qo‘ygan bo‘lib, shu maqsad yo‘lida tizimli ishlar olib bormoqda.

Tarixdan ma‘lumki, O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan ilk davlatlar: Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Temuriylar va uch xonliklar davrida ham diplomatiya davlatning asosiy e‘tibor qaratiladigan sohasi bo‘lgan, chunki mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan xorijiy davlatlar bilan olib boriladigan faol tashqi siyosatga bog‘liq. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan mamlakatimiz asrlar davomida xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni shakllantirib, o‘zaro diplomatik aloqalar olib borgan. Bu jarayon, ayniqsa, buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur davrida rivoj topgan. Amir Temur o‘z davrining eng qudratli davlatlaridan birining asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi bo‘lish bilan bir qatorda, o‘z vaqtida Yevropa va Osiyo qit‘alarida ro‘y bergan tarixiy o‘zgarishlarga hal qiluvchi ta‘sir o‘tkazib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan mohir diplomat ham bo‘lgan. Xorijiy davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalarida, diplomatik

xatlarida sharq diplomatiyasiga xos etiketning yaqqol sezilib turishi, mamlakatlar o'rtasidagi sovuqchilik va muammolarni tinch yo'l bilan oqilona hal qilishga intilishi Amir Temur tashqi siyosatining o'ziga xosligidan dalolatdir. Shuning uchun ham Temuriylar davri diplomatiyasi o'tmishdagi xalqaro munosabatlarning eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Amir Temur bundan olti asr avvaloq xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalar o'rnatmay turib, mamlakatning istiqbolga erishib bo'lmasligini teran anglagan edi. Angliya, Fransiya, Usmonli Turkular, Ispaniya, Xitoy, Hindiston kabi turli mamlakat hukmdorlari bilan amalga oshirgan yozishmalari va diplomatik aloqalari buning yaqqol tasdig'idir.

Yurtimizdan Amir Temurga o'xshagan mohir diplomat va elchilar ko'plab yetishib chiqqanligiga qaramay, ularning faoliyati chuqur o'rganilmagan. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 11-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlagan nutqida: "Bizning boy madaniyat va qadimiy tarixga ega davlatimizdan o'z davrining mohir diplomatlari, elchilari yetishib chiqqani to'g'risida ko'plab ma'lumotlar mavjud, ammo ularning hayoti va faoliyati, afsuski, hozirgacha chuqur va atroflicha o'rganilmagan. Tashqi ishlar vazirligi bunga e'tibor qaratib, ushbu masalaning tarixiy ildizlari, mustaqillik davrida o'zbek diplomatiyasining shakllanish jarayonlari haqida alohida bir kitob chiqarsa, bu soha xodimlari, avvalo, yosh diplomatlar uchun muhim qo'llanma bo'lardi", – deb ta'kidlab o'tgan.

XIX asrda O'zbekiston hududida joylashgan davlatlar Rossiya Imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgandan so'ng mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum bo'lgan, suverenitetini yo'qotgan, faqatgina markaz manfaatlari uchun xizmat qilishga majbur bo'lgan mamlakatimiz uchun tashqi siyosat o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Ammo xalqimizning asriy orzu-istaklari ro'yobga chiqib, istiqbolga erishganimizdan so'ng suveren O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini samarali yo'lga qo'yish, Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay tashqi shart-sharoitni vujudga keltirish, xalqaro munosabatlarda va xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va davlat manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 25-mayda "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini tashkil etish

masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va 1996-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qarorlar asosida shakllantirildi. Shu tufayli istiqbol yillarida davlatimiz 133 dan ortiq mamlakatlar bilan rasmiy munosabatlar o‘rnatdi, hozirda Toshkentda 45 ta xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 ta konsullik, 11 ta xalqaro tashkilotlar vakolotxonalari faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, prinsiplari, strategik ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari 2012-yil sentabrda qabul qilingan “Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi”da o‘z aksini topgan. Bu konsepsiya O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari suradigan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun faol va tinchlikparvar tashqi siyosat yuritgan. Masalan, 1992-yil 2-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosiga aylanib, xalqaro minbarlarda mamlakat nomidan turli xil takliflar ilgari surishni boshlagan. Jumladan, butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashish, yadro quroli tarqalishining oldini olish bo‘yicha bildirilgan takliflar jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi. O‘zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, BMTning Yevropa bo‘yicha iqtisodiy komissiyasi (YeIK), Jahon savdo tashkiloti (JST) kabi tashkilotlar bilan keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar: Xalqaro bolalar jamg‘armasi (YuNISEF), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa tashkilotlarga ham a'zo bo‘ldi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali tashqi siyosatda yuqori reytinglarga ega bo‘lish davomida tizimda uchragan ba'zi kamchiliklar tufayli mamlakatimizda bir muddat tashqi aloqalar sezilarli darajada sustlashib qoldi. Ayniqsa, bu holat 2000-yillar o‘rtalaridan boshlab sezila boshladi. Xorijiy davlatlar bilan, eng asosiysi, bizga chegaradosh bo‘lgan mamlakatlar bilan turli sohalardagi hamkorlikning sustlashishi natijasida tizimda ko‘plab muammolar paydo bo‘ldi.

Biroq, 2016-yilning so‘nggi choragida prezident etib saylangan Shavkat Mirziyoyev bu holatni chuqur anglagan xolda turli sohalar qatori tashqi siyosat tizimini ham tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va uni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanligiga alohida e‘tibor qaratdi. Bu borada bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, mamlakatimiz rahbari 2018-yilning yanvar oyida mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq onlayn muloqot o‘tkazdi. Bundan tashqari, 2017-yilda Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, taraqqiyot va barqaror rivojlanish yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida 500 nafardan ortiq delegat ishtirok etgan anjuman bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishni asosiy tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi. Tariximizning, dinimizning, madaniyatimizning, tilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi hozirgi tahlikali zamonda bu mamlakatlar xalqlarini yanada yaqinlashtirish kerakligini har qachongidan ham ko‘proq taqozo eta boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarida yangi davr boshlandi. Shu yilning o‘zida Turkmaniston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlariga davlat tashriflar amalga oshirildi. Davlat rahbarlari o‘rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotni mustahkamlash natijasida mintaqadagi qo‘shnichilik munosabatlarida 2016-yilgacha mavjud bo‘lgan ko‘plab murakkab muammolarga yechim topildi. O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida javob berishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda. Bular O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo‘lganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi. Xalqaro hamkorliklar doirasida qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o‘z vaqtida to‘liq bajarish maqsadida 40 ta “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va butunjahon iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekiston ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat‘iy sa‘y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro‘-e‘tibori tobora yuksalmoqda. Dunyo mamlakatlari orasida yurtimiz o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Jumladan, mamlakatimiz o‘z tarixida birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a‘zo etib saylandi. Yaqinda AQSh Davlat departamenti

tomonidan O‘zbekiston diniy erkinlik sohasidagi “maxsus kuzatuvdagi davlatlar” ro‘yxatidan chiqarilgani ham keng ko‘lamli demokratik islohotlarimizning e’tirofidir. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbarida ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinib, qo‘llab-quvvatlandi.

2020-yil 29-dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021-yilda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat berilishishi aytib o‘tildi:

**Birinchidan**, davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtiriladi.

**Ikkinchidan**, tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratiladi. Murakkab pandemiya sharoiti biz bir-birimizga qanchalik bog‘liq va kerak ekanimizni yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Bu ijobiy jarayonlarni chuqur o‘rganish va yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yilda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etildi. 2021-yilda Toshkentda mintaqamizning Janubiy Osiyo bilan munosabatlariga doir yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o‘tkaziladi. Shular qatorida Xiva shahrida “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro anjumani YuNESKO bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

**Uchinchidan**, O‘zbekiston “Qo‘shning tinch-sen tinch” tamoyili asosida qo‘shni Afg‘oniston zaminida tinchlik o‘rnatilishi uchun tizimli ishlar olib borgan va bu ezgu yo‘lda amaliy yordamni bundan keyin ham ayamaydi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘laydigan Trans-afg‘on transport yo‘lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Bu loyihaning ro‘yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga beqiyos xizmat qiladi.

**To‘rtinchidan**, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. 2020-yilda mamlakatimiz ilk bor Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga raislik qildi va pandemiyaga qaramasdan, ko‘zda tutilgan 60 dan ziyod barcha xalqaro tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi, 70 ga yaqin muhim

hujjatlar qabul qilindi. 2021-2022-yillarda O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qilishi bo'yicha ham jiddiy tayyorgarliklar boshlandi.

**Beshinchidan**, inson huquqlarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi bo'yicha erishayotgan yutuqlarimizni tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlab borish va kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" global forumi, yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo'yicha mintaqaviy konferensiyalarni o'tkazish maqsad qilingan.

**Oltinchidan**, Shavkat Mirziyoyev dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida "Vatandoshlar" jamg'armasini tuzishni taklif etdi.

**Yettinchidan**, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish kerakligini ta'kidladi. Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30 iyul - Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois davlatimiz rahbari ushbu sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etdi.

**Sakkizinchidan**, mintaqamizda, butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotgani bizni jiddiy tashvishga solayotgani, qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat'iy davom ettirishimiz zarurligi aytib o'tildi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston yer yuzidagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni keng yo'lga qo'yib kelmoqda, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish yo'lida izchillik va qat'iyat bilan odimlamoqda. Jahon miqyosida raqobat, qarama-qarshilik, turli manfaatlar to'qnashuvi, geopolitik ziddiyatlar tobora kuchayib borayotgan bu zamonda biz kuchli tashqi siyosat olib bormasdan turib, ko'zlagan maqsadlarimizga erisha olmaymiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.  
<https://president.uz/uz/1422>
2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

<https://lex.uz/ru/docs/-452255?ONDATE=25.05.1992%2000#-452450>

3. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy veb-sayti.

<https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>

4. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi Diplomatik korpusga xizmat ko‘rsatish byurosining rasmiy veb-sayti.

<http://www.ddsmfa.uz/uz/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-tashqi-ishlar-vazirligi-va-mamlakatimizning-xorijiy>

5. O‘zbekiston tarixi, o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalari uchun darslik – T.: G‘afur G‘ulom, 2018